

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi



2018 yilning yanvar-noyabr oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2760,1 mlrd.so'mni**, o'sish sur'ati - **115,1 %** ni tashkil etdi;
- Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi o`rtacha **1089,1 ming.so`mga** yetdi;
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **40,5 %** ni tashkil etib, aholi jon boshiga o`rtacha **440,8 ming.so`m-ga** to`gri keldi;
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **46,3 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2760,1 mln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 14,4 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 19,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 24,2 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 12,3 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash (o'sish sur'ati -119,2 foiz)
- Ishlab chiqaradigan sanoat (o'sish sur'ati -114,4 foiz)
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati -124,2 foiz)
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati -112,3 foiz)

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 141,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,1 % ni tashkil etdi.


Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha ko'mir va lignit qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan – 1,5 baravarga, xom neft va tabiiy gaz qazib olish – 1,3 % ga va tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar – 3,0 % ga va oshgan. Shu bilan birga ishllov berilgan bug'doy urug'i 3,7 % ga, xom neft esa – 0,9 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.




**Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish**

2017 yil yanvar-noyabrdagi ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yil yanvar-noyabrdagi ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Ko'mir, ming t.			
108,5		159,0	146,5 
Neft, ming t.			
78,3		77,6	99,1 
Osh tuzi, ming t.			
24,7		6,0	24,4 
Qum, ming t.			
10,4		33,3	3,2m 
Chaqiq tosh, ming t.			
38,5		15,0	2,6m 
Shag'al, ming t.			
15,0		38,5	2,6 


Ko'mir, ming t.



Neft, ming t.



Tuz, ming t.



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2414,3 mlrd.so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,4 % o'sish sur'atini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,8 % ni (2017 yil yanvar - noyabr oylarida – 37,4 %), tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish 28,1 % ni (20,9 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,3 % ni (11,7 %) va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 8,8 %ni (9,2 %) tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2017 yil yanvar-noyabrdagi ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-noyabrdagi ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

Dizel yoqilg'isi, ming t.

12,7



10,6

83,2

**Un, t.**

95,1



91,7

96,5

**Aroq, ming l.**

1869,5



1831,1

97,9

**Beton, ming t.**

55,2



109,8

1,9m



2017 yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	--	--	--------------------------

Paxta tolasi, ming t.

36,3



56,8

1,6m ↑

O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.

9,5



11,4

120,7 ↑



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 161,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,9 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmining – 6,3 % ga oshganligi va gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar o'tgan yil darajasida qolganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	--	--	--------------------------

Issiqlik energiyasi, ming Gkal

65,6



69,6

94,4 ↓

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 42,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar 3,4 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 44,3 % ga, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyni – 0,1 % ga oshganligi kuzatildi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar hajmining (43,3 %) pasayganligi kuzatildi.



Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	--	--	--------------------------

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna

12,5



12,5

100,1 ↑

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm

9695,4



13987,5

144,3 ↑

Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm

4276,3




1849,9

43,3 ↓

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1117,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 4,7 % ga o'sishi ta'minladi. Jami sanoatdag'i ulushi esa 40,5 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 56,1 % dan 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida 57,3 % ga oshganligi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 43,9 % dan 42,7 % ga pasayganligi kuzatilmogda.

***Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish tarkibi, %***



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 6,2% ni (2017 yil yanvar-noyabr oylarida 6,7%) tashkil etdi.


***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
ishlab chiqarilishi***

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 479,4 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,5 % ni tashkil etdi.


O'tgan yilda qo'shma korxonalarning umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 16,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 17,4 % gacha oshdi.

***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiyligi hajmidagi ulushi, %.***

2017 yil yanvar-noyabr



2018 yil yanvar-noyabr



- Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar
- Viloyatning boshqa korxonalari

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat sanoat ishlab chiqarishi umumiyligi hajmini o'sishiga qo'shma korxonalarning qo'shgan hissasi 0,2% ni tashkil etdi.

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiyligi hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini ulushi 20,2 % ni tashkil etdi.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Jarqo'rg'on tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 20,5 %), Termiz shahri (18,1 %), Denov tumani (14,2 %), Sho'rchi tumani (10,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Denov tumani (jami iste'mol tovarlari hajmida 22,5 %), Termiz shahri (15,7 %), Sho'rchi tumani (11,7 %) da ishlab chiqarildi.

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar Qiziriq (2017 yil yanvar-noyabrga nisbatan 152,8 %), Sho'rchi (128,1 %), Termiz shahri (125,8 %), Qumqo'rg'on (118,6 %) va Muzrabot (115,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Sherobod (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 128,8 %), Sho'rchi (111,1 %), Oltinsoy (108,1 %) tumanlari hamda Denov (103,5 %) tumanida iste'mol tovarlarini sezilarli darajada oshdi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sish sur'atlari


(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Termiz shahrida (3454,7 ming so'm), Jarqo'rg'on (2691,5 ming so'm) va Sho'rchi (1452,8 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1089,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 440,8 ming so'm bo'lgani holda Termiz shahrida 1215,3 ming so'mni, Termiz tumanida 679,1 ming so'mni, Denov tumanida 662,4 ming so'mni, Sho'rchi tumanida 657,0 ming so'mni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sish sur'atlari



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,1 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 46,3 % tashkil etmoqda.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korhonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Boysun (99,9 %), Termiz (86,6 %) va Uzun (68,7 %) tumanlarida, shu bilan birga, eng kichkina ulush Jarqo'rg'on (31,4 %), Sho'rchi (23,9 %) Qumqo'rg'on (34,6 %) va Qiziriq (40,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Sanoat statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (71) 230-85-76